

Tarbiya

4



novda



O. V. Usmanova
Y. V. Risyukova

Tarbiya


4-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari
uchun darslik

Ta'limni rivojlantirish Markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash
tomonidan tavsiya etilgan.



Toshkent – 2023



UO'K: 17(075.3)
BBK 87.7ya72
T 23

Usmanova O.V., Risyukova Y.V.

Tarbiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. / O. V. Usmanova, Y. V. Risyukova – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 80 b.

Taqrizchilar:

- B. N. Karimov** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi;
Sh. O. Ergasheva – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bosh mutaxassisi, filologiya fanlari nomzodi

Shartli belgilar:



**Yangi ma'lumotni
o'rganing**



**Og'zaki
topshiriq**



**Savollarga
javob bering**



**Topshiriqni
bajaring**



**Vaziyatni
o'rganing**



Bu – qiziq!



Eslab qoling!



**Tabiatni
asrang**



**Ijodiy
topshiriq**



**Guruh bo'lib
ishlang**



Xalq o'gitalari

Aziz o'quvchi!

Yangi o'quv yili boshlandi, demak, sizni bilimlar olamiga yangi sayohatlar kutmoqda. "Tarbiya" darsligi bunda ishonchli hamrohingiz bo'ladi.

Bu yil fuqarolik qadriyatlari, huquq va burchlaringiz, zamonaviy dunyoda sizga asqotadigan fazilatlar haqida ko'pgina yangi bilimlarni egallaysiz.

Shuningdek, hududiy va global ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lasiz hamda ularni loyiha ishlarida qo'llashingiz mumkin.

Bilimingiz va dunyoqarashingizni kengaytirish orqali olamni yaxshi tomonga o'zgartirish uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'lasiz.

Bu borada sizga muvaffaqiyat va ajoyib kashfiyotlar tilaymiz!



I bo'lim. O'zbekiston – mening Vatanim

1-2-daralar

BIZ – O'ZBEKISTON FUQAROLARIMIZ



Vatanimizning go'zal tabiati, purviqor tog'lari, vodiylari, daryo va ko'llari bor. Yurtimiz shaharlari chiroyli, qishloqlari so'lim, mahallalari ahil va obod.

O'zbekiston – boy madaniyat va ko'p asrlik an'analar yurti. Nafaqat tarixiy, balki aniq maqsadlar va dadil qadamlar bilan kelajakka intilgan zamonaviy mamlakatdir.

O'zbekiston – zamondoshlarimiz, qo'ni-qo'shnilar va do'stlarimiz, oilamiz va qarindosh-urug'larimizdir.





O'zbekiston 1992-yilda Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani imzoladi. Unda butun dunyodagi bolalarning tug'ilganidan voyaga yetgunga qadar bo'lgan huquqlari bayon etilgan. Bu huquqlar bolalarning hayoti va salomatligi, barcha bolalar baxtiyor ulg'ayishi va har tomonlama rivojlanishi uchun muhimdir.

Oilada ota-onasi bilan yashash

Ta'lim olish

Yashash huquqi

Dam olish

 Tibbiy xizmatdan
foydalanish

Shaxsiy daxlsizlik



Bolalarning huquqlari

So'z va vijdon erkinligi

O'z fikriga ega bo'lish

Bolalarning Konvensiyada yozilgan huquqlari ularning **shaxsiy huquqlari** hisoblanadi. Siz ulg'ayganingiz sari atrofingizdagi olam tobora kengayib, rang-barang bo'lib boradi. Shuningdek, davlat va jamiyat hayoti qanday tashkil etilishini tushuna boshlaysiz. Ulg'aygach, **fuqarolik huquqlariga** ham ega bo'lasiz. Buni siz jamiyat hayotida to'laonli ishtirok etasiz, jamiyat va davlatdagi o'zingizga tegishli voqea-hodisalarga ta'sir ko'rsata olasiz, deb tushunish kerak.



Kichik guruhlarda muhokama qilib, savollarga javob bering.

1. Siz qanday huquqlarga egasiz?
2. Siz qaysi huquqlardan foydalanyapsiz?



Jamoada hamda jamiyatda o'zaro hamjihatlik bo'lishi uchun, biz nafaqat o'z huquqlarimizni bilishimiz kerak. Shu bilan birga inson bir qator burchlarini ham bajarishi lozim. Buni yoshlik chog'imizdanoq tushunishimiz kerak.

Oila va maktab – hayotingizning ilk davridan sizni bag'riga oladigan asosiy jamoalardir. Aynan ularda jamiyatdagi o'zaro munosabatlar haqida ilk amaliy ko'nikmalarga ega bo'lasiz.

Fuqaroning asosiy burchlari

Boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish

O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga amal qilish

Farzandlarini tarbiyalash va ularga g'amxo'rlik qilish

Vatanni himoya qilish

Tabiatni va atrof-muhitni muhofaza qilish



Tarixiy va madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash



Davlatimizning asosiy qonunida fuqarolarning huquq va burchlari aniq belgilab qo'yilgan. Davlat ham ana shu qonun asosida boshqariladi. Bu qonun Konstitutsiya deb ataladi.



Kichik guruhlarda muhokama qilib, savollarga javob bering.

1. Sizning qanday burchlaringiz bor?
2. Ularni nima uchun bajarish kerak?

FUQAROLIK FAZILATLARI



Har bir insonda muomala odobi, qat'iyat, jasorat, tartiblilik singari shaxsiy fazilatlar bo'lishi kerak. Ijobiy fazilatlar insonga yaxshi hayot kechirib, har bir ishd muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi.

Bundan tashqari, fuqarolik fazilatlar ham bor. Ular nafaqat bir inson, balki butun jamiyat va mamlakat farovonligi uchun ham zarur. Boshqalarni hurmat qilish, halollik, adolatlilik, do'stlik, hamjihatlik – insonlarni bir-birini qo'llab-quvvatlash, Vatanni sevish fuqarolik fazilatlaridir.



Fuqarolik fazilatlarimizni namoyon qilish orqali mamlakatimizning gullab-yashnashiga o'z hissamizni qo'shamiz.



1. "Gullab-yashnash" deganda nimani tushunasiz?
2. Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shish uchun qanday fazilatlarga ega bo'lishimiz kerak?
3. Siz ham shunday fazilatlarni namoyon eta olyapsizmi?



Hamjihatlik



Ajoyib toza havoda velosipedda maza qilib ketayotgan edim. Birdan yo'lda Jamshidni ko'rib qoldim. U nima qilishini bilmay, velosipedini oldida turgandi. Bilsam, velosipediga nimadir bo'lib, yiqilib tushgan ekan. Jamshid bilan ko'p gaplashmayman, epchil bo'lmagani uchun bolalar bilan o'ynashga ham kam chiqadi. Lekin u – a'lochi. Shuning uchun bizni pisand qilmaydi, deb o'ylardim. Shoshayotgan bo'lsam ham, negadir to'xtab, unga yordam bergim keldi. Ikkalamiz ancha urinib, bir amallab, velosipedini tuzatdik. Keyin birga gaplashib ketdik. Ertasi kuni ham uchrashishga kelishdik.



Shundan keyin biz do'stlashib oldik. Jamshid har kuni biz bilan birga o'ynaydigan bo'ldi. Ikki haftadan keyin matematikadan murakkab masalani qanday yechishni menga osongina tushuntirib qo'ydi. Masala unchalik qiyin emas, juda qiziqarli ekan.



1. Jamshidga kutilmagan yordam taklif qilinganda u nimani his qildi?
2. Velosiped tuzalganda bolalar o'zlarini qanday his qildi deb o'ylaysiz?
3. Bu voqea qanday yaxshilikka sabab bo'ldi?



Insonlar ko'pincha bir-biriga xolis yordam beradi. Ya'ni majbur bo'lgani uchun emas, shunchaki yordam bergisi kelgani uchun yordam beradi. Kimdir qiyin ahvolga tushib qolsa, ko'pincha unga yordam berish uchun vaqtimizni ham, kuchimizni ham ayamaymiz, evaziga esa undan hech narsa kutmaymiz. Bunday o'zaro yordam jamiyatning gullab-yashnashiga, unda insonlar o'zini baxtli va kerakli his qilishiga sabab bo'ladi. Aksincha, insonlar bir-birini qo'llab-quvvatlamasa, ahil va hamjihat bo'lmasa, jamiyatda o'sish va rivojlanish bo'lmaydi.

MUNDARIJA

I bo'lim. O'zbekiston – mening Vatanim

1-2-darslar.	Biz – O'zbekiston fuqarolarimiz	4
3-5-darslar.	Fuqarolik fazilatlarini	7
6-dars.	Biz – yo'l harakati qatnashchilarimiz	13
7-dars.	Temir yo'l yaqin bo'lsa	15

II bo'lim. Ekologiya va salomatlik

8-dars.	Havoning ifloslanishi	16
9-dars.	Suv zaxiralari	18
10-dars.	Cho'lga aylanayotgan hududlar	20
11-dars.	Chiqindini qayta ishlash	22
12-13-darslar.	Sog'lom turmush tarzi	26
14-dars.	Xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilish kerak?	34

III bo'lim. Ulg'ayaman va rivojlanaman

15-16-darslar.	Qobiliyatlarni rivojlantiramiz	36
17-18-darslar.	Saboq olishni o'rganamiz	41
19-21-darslar.	Bizning xatti-harakatlarimiz	48
22-dars.	Shaxsiy chegaralar	58

IV bo'lim. Fan va madaniyat

23-24-darslar.	Ilmning qiziqarli olami	60
25-26-darslar.	Dunyoga yuz ochgan internet	66
27-28-darslar.	Chet tillari nima uchun o'rganiladi	70
29-30-darslar.	Cheksiz olam	74

veb-saytimiz: Zokirjon.com

***Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.***

Zokirjon Admin bilan

***90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga
murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram
orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob
beriladi***

***4-sinf tarbiya kitobini to'liq holda olish uchun
telegramdan yozing.***

Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga
tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**